**ULGURJI ISTE'MOLCHILAR UCHUN ELEKTR TA'MINOTI SHARTNOMASI**

2022 yil "21 01 ___" 8001 - son Yunusobod
TETK nomi

"Toshkent shahar elektr tarmoqlari "AJ ning 2022 yil "16" dekabr da ro'yxatdan o'tkazilgan 42 ДЮ-1-12/4532 – son bosh ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi Yunusobod TETK rahbari Vafaev S. N.
*(tuman elektr ta'minoti korxonasining nomi)* *F.I.O*

(keyingi o'rinlarda "Ta'minotchi korxona" deb ataladi) bir tomondan hamda

устав asosida faoliyat yurituvchi Юнусобод Абдурешидов Сино номидаги неврология шифохона
*(iste'molchining nomi)*

rahbari Н.А. Нурматову (keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb ataladi),
*(iste'molchi rahbarining F.I.O.)*

ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

## I. SHARTNOMA PREDMETI

1. Ushbu elektr energiyasi ta'minoti shartnomasiga (keyingi o'rinlarda - **Shartnoma** deb ataladi) muvofiq, "Ta'minotchi korxona" "Iste'molchi"ga elektr energiyasini ulangan tarmoq orqali yetkazib berish va "Iste'molchi" iste'mol qilingan energiya uchun o'z vaqtida haq to'lash majburiyatini oladi.

## II. YETKAZIB BERILGAN ELEKTR ENERGIYANI XISOBGA OLISH

2.1. Elektr energiya iste'molining yillik shartnomaviy hajmi:
Aktiv 23333 kVt*s. reaktiv 450 kVar*s.

2.2. Yetkazib beriladigan energiyaning shartnoma tuzilgan kunidagi umumiy narxi 104999889,5 so'mni, tarif bo'yicha ______________ tashkil etadi.
*tarif turi: tabaqalashtirilgan, bir stavkali yoki axoliga tenglashtirilgan, (keraklisi yozilsin)*

2.3. "Iste'molchi"ga yetkazib beriladigan elektr energiyasining oylar kesimidagi yillik xajmi ushbu shartnomaga 1-ilovada keltirilgan.

Yetkazib beruvchi tomonidan xizmatlarni to'liq hajmda ko'rsatish uchun elektr ta'minotida tanqislik yuzaga kelgan taqdirda, Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrdagi 277-son qarorida qayd etilgan, strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega iste'molchilarga zarur bo'lgan elektr energiyasining minimal hajmini, shu jumladan choraklar va oylar bo'yicha iste'molchi bilan belgilangan tartibda oldindan kelishilgan holda yetkazib berilishini ta'minlashi shart (7-ilova).

2.4. "Iste'molchi" tomonidan iste'mol qilingan elektr energiyasining haq to'lanishi lozim bo'lgan hajmi ushbu shartnomaga 2-ilovada nazarda tutilgan xisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari asosida, hisobga olish priborlari ulangan tok va kuchlanish transformatorlarining transformasiya koeffisiyentlari inobatga olingan holda aniqlanadi.

2.5. Iste'molchilarning (maishiy iste'molchilar va tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) elektr energiyasini xisobga olish uskunalari, shuningdek elektr energiyasini hisobga olishning boshqa vositalari iste'molchining mablag'lari xisobiga sotib olinadi, davlat qiyoslovidan o'tkaziladi, hududiy elektr tarmoqlari korxonalari tomonidan bepul o'rnatiladi, plombalanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi.